

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova

O'zbek tilida metafora va metonimiya shakllanishida milliy tafakkurning o'рни.....6

Zoxira Xidraliyeva

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati23

Hairatullah Barlas

Tuhfetul-Abidin'in Şekil Özellikleri35

ADABIYOTSHUNOSLIK

Elmira Adilbekova

Hacı Bektaş Veli'nin Ahlaki Düşüncesi: Anadolu Tasavvuf Geleneğinde Etik Bir Yaklaşım.....51

Feruza Burxonova

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.....72

Parviz Izzatillayev

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: "Majolis un-nafois" – "Hasht bihisht"89

Gulrux Xudoyorova

Lirik kechinma tabiati110

Тюркан Вердиева

Отражение литературно-культурной среды Гянджи XII века в драматических произведениях XX века Мехти Гусейна и Камали Агаевой127

Leyla Karimova

Makedoniyalı İskenderin Azərbaycana Seyaheti: Tarih ve Nizami Gencevinin Hayal Dünyasında Yansıması140

SOTSILOGIYA

Fatxulla Abduvaliyev

Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri152

CONTENT

LINGUISTICS

- Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**
The role of National Worldview in the Formation of Metaphor
and Metonymy in the Uzbek Language.....6
- Zakhira Khidraliyeva**
The Relationship Between the Oghuz Dialects
of Southern Kazakhstan.....23
- Hayratullah Barlas**
Formal Characteristics of *Tuhfetul-Abidin*35

LITERATURE

- Elmira Adilbekova**
The Moral Philosophy of Haci Bektaş Veli: an Ethical
Approach in the Anatolian Sufi Tradition51
- Feruza Burkhanova**
The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic
Characteristics.....72
- Parviz Izzatillaev**
Comparison of the Original Text and the Persian Translation:
“Majolis un-Nafois” – “Hasht Bihisht”89
- Gulrukh Khudoyorova**
The Nature of Lyrical Experience.....110
- Turkan Verdiyeva**
Reflection of the Literary and Cultural Sphere of the
XIIth Century Ganja in the XXth Century Dramas of Mehdi
Huseyn and Kamala Agayeva127
- Leyla Karimova**
The Journey Alexander of Makedonian the Great to
Azerbaijan: its Reflection in History and in Nizami Ganjavi’s
imaginative World140

SOCIOLOGY

- Fathulla Abduvaliev**
The Impact of Globalization Processes on Educational Migration.....152

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati

Zoxira Xidraliyeva¹

Abstrakt

Davrlar osha o'z bag'rida nodir durdonalarni saqlab kelayotgan milliy tilning asosi, adabiy tilning boyish manbayi bo'lgan shevalarning umumturkiy va dialektal xususiyatlarini o'rganish, tavsif va tadqiq qilish faqat o'zbek shevashunosligi uchungina emas, balki turkiy tillarning qiyosiy dialektologiyasi uchun ham ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Turkiy tillar ichida o'zbek shevalari murakkab dialektal tarkibga ega ekanligi adabiyotlarda ko'p bora ta'kidlangan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi o'zbek shevalari yanada murakkabligi, o'ziga xosligi hamda turkiy tillarning qarluq, qipchoq, o'g'uz kabi turli guruhlariga aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada o'zbek tilining tarkibiy qismiga birikuvchi Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati masalasini o'rganish maqsad qilangan. Ma'lumki, Qozog'iston Respublikasidagi o'zbeklarning deyarli aksariyat qismi, Qozog'istonning janubida – Turkiston viloyatida istiqomat qilishadi va ular til xususiyatiga ko'ra o'zbek tilining qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga bo'linadi.

Janubiy Qozog'istondagi o'g'uz shevalari tarkibiga kiruvchi Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Qizilqishloq kabi shevalarning o'zaro munosabati, ya'ni o'ziga xos fonetik, morfologik, leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, umumiy va farqli jihatlari haqida fikr yuritish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy til, turkiy til, lahja, sheva, qarluq, qipchoq, o'g'uz, shimoliy o'zbek guruh shevalari.*

Kirish

Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalari Y. D. Polivanov, K.K. Yudaxin, S. Zufarov, F. Abdullayev, Q. Muhammadjonov, A.Yo'ldoshev, K. Nazarov, M. Begaliyev, Sh. Nurullayeva, Z. Xolmedova, Z. Xidraliyevalar tomonidan o'rganilib, tadqiq etilgan.

¹Xidraliyeva Zoxira Riskulovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: xidraliyevazoxira@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0002-7976-1093

Iqtibos uchun: Xidraliyeva, Z. R. 2025. "Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 23 – 34.

Ushbu arealda o'zbek tilining har uchala qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari tarkibiga kiruvchi shevalarning mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan. O'zbek tilining tarkibiy qismiga birikuvchi ushbu shevalar O'zbekiston hududidagi shevalari bilan umumiy va farqli xususiyatlarga egaligi, shubhasiz. Shuningdek, JQO'SH (Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalari) o'zaro munosabatiga ko'ra ham umumiy va farqli xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiy.

Biz maqolada ushbu arealdagi shevalardan faqat o'g'uz lahjasiga kiruvchi shevalarning o'zaro munosabatini yoritishga harakat qilamiz.

Bizga ma'lumki, o'g'uz lahjasi vakillari Xorazm vohasidan tashqari Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyatining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq, Qarnoq, Iqon, Ibota kabi qishloqlarida istiqomat qilishadi. Ularga yondosh qarluq va qipchoq shevalarining ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin, barcha sathlar bo'yicha o'g'uz lahjasiga xos bo'lgan juda qadimgi tarixiy xususiyatlarni hamon saqlab kelmoqda. Ushbu shevalar o'g'uz lahjasining muhim xususiyatlarini o'zida aks ettirishi qator manbalarda qayd etilgan [Yudaxin 1957; Polivanov 1929; Abdullayev 1978].

Asosiy qism

JQO'Shlari turkiy tillarning qadimgi unlilar tizimini yaxshi saqlab qolgan. Unlilar tizimi 9 ta unli fonemadan iborat. JQO'Shlarida ham Xorazm shevalari kabi birlamchi cho'ziq unlilar mavjud. Shunga mos ravishda birlamchi cho'ziq unlilarning kontrast jufti qisqa unlilar ham amal qiladi, natijada qisqa va cho'ziq unlilar qo'shilib, ularning miqdori 18 taga yetadi [Abdullayev 1961; Xidraliyeva 2023; Begaliyev 2002; Muhammadjonov 1988]. Xorazm o'g'uz shevalarida cho'ziq unlilar, asosan, ot so'z turkumidagi so'zlarning birinchi bo'g'inida amal qilishi qayd qilinadi [Abdullayev 1978, 131- 132], JQO'Shlarida cho'ziq unlilar nafaqat ot turkumidagi so'zlarda, balki barcha mustaqil so'z turkumida qo'llanadi, shuningdek, Xorazm shevalaridan farqli ravishda cho'ziqlik ikkinchi, uchinchi bo'g'inlarda ham uchraydi [Khidraliyeva 2020, 586-589] (ergashtir ~ *ajä:rt*, ulgurji ~ *kötä:räsi*, bechora ~ *bajayu:š*).

JQO'Shlaridan Mankent, Qoramurt shevalarida birlamchi cho'ziqlik o'zak morfemalardan tashqari grammatik qo'shimchalarda ham amal qilishi kuzatiladi: *ni:du:* (nimadi?), *ba:mi:* (bormi?), *joxmi:* (yo'qmi?) kabi.

JQO'Shlarida til oldi, quyi keng *ä* unlisining qo'llanish doirasi Xorazm o'g'uz shevalaridagidek ancha keng. Adabiy til hamda qarluq

va qipchoq shevalarida birinchi bo'g'inda keladigan til oldi, o'rta keng *e* unlisi bilan tovush mosligini hosil qiladi.: *etak ~ ä:täk, elak ~ ä:läk, teri ~ tä:ri, es ~ ä:s, kes ~ kä:s, eshak ~ ä:šäk, ters ~ tä:ris, teng ~ tä:η, kerak ~ kä:räk, temir ~ tä:mir, tepa ~ tä:pä, mensimaydi ~ mä:nsimmäjdi (Iqon.) каби.*

JQO'Shlarida *e* unlisining qo'llanish doirasi nisbatan tor, asosan, *r, l* va *j(y)* undoshlari bilan yondosh bo'lib kelganda qo'llanadi: *erta ~ e:r, aytmoq ~ e:t(eyt), be:l, sovchi ~ e:lçi, te:räk, ellü:, jel, jeznä, se:l, jetti, jem, jesir* va boshqalar;

So'z tarkibidagi unlilarning qo'llanishida ham ayrim o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi. Masalan, so'zning so'nggi bo'g'inlarida adabiy til va aksariyat shevalarda lablanmagan unlilar kelgan o'rinlarda Mankent, Qoramurt shevalarida lablangan unlilar kelishi xarakterlidir: *xotin ~ xatun, oltin ~ altun, salqin ~ salqun, ortiq ~ artuq, yostiқ ~ jastuq, qoshiq ~ qašuq, sariq ~ saruq*. Shuningdek, ushbu xususiyat affikslarda ham mavjud: *boraylik ~ barajnuq, ko'raylik ~ köräjnük, borsin ~ barsu, kelsin ~ kälsü, qildik ~ qilduq* kabi.

JQO'Shlarida undoshlar tizimi miqdor jihatidan Xorazm o'g'uz shevalaridan deyarli farq qilmasa-da, ba'zi undoshlar talaffuzida sifat jihatidan farqlar bor, ya'ni chuqur til orqa *q, γ, x* undoshlari Xorazm o'g'uz shevalarida til orqasida hosil bo'ladi. Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarida esa adabiy tilga mos keladi.

Xorazm o'g'uz shevalarida so'z boshida *k* va *t* undoshlarining jaranglashuvi (*ketti < gitti, kel < gäl, kun < gü:n, ko'z < gö:z; til < di:l, tun < dü:n, tep < dæ:p, tush < dü:š*) xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lsa, JQO'Shlari uchun esa *k < g, t < d* tovush mosligi xos emas, bu epizodik hodisa: *kunjara ~ gü:nža:ra, telba ~ dä:lbä, tovush ~ da:vuš, tarvuz ~ da:rbiz (Iqon)*.

Xorazm o'g'uz shevalarida *k, q* undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: *tilagi < tiläki, sochig'i < sa:çaqi* [Ashirboyev 2021, 88] kabi. JQO'Shlaridan faqat Qoramurt shevasidagina asosga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda jarangsizlik saqlanadi. Masalan: *ajaqim ayrijatti, qulaqiñ ba:mi:?*), boshqa shevalarda *k < g, q < γ* mosligi hosil bo'ladi.

Xorazm o'g'uz shevalarida ayrim so'zlarning oxiridagi *k, g, q, γ* tovushlarining talaffuzda kuchsizlanishi natijasida tushib qolishi, masalan: *tirik < di:ri, kichik < kičçi, qattiq < qattï, ulug' < ulli* [Madrachimov 1973, 10]. Xorazm o'g'uz shevalariga xos bo'lgan bu xususiyat, ya'ni tor unlilardan so'ng *k, g, q, γ* undoshlarining tushib

qolishi ma'lum xarakterga ega bo'lsa, JQO'Shlarida so'z oxiridagi undosh asosan saqlanadi, ammo Qarnoq shevasida ham: *ajiq <aju:, ellik <ellu:, oziq tish <azu: ti:š*, kabi ba'zi so'zlarning oxiridagi *k, g, q, γ* undoshlari tushib qolishi kuzatiladi va bu holat qozoq tilining ta'siri deb baholanadi [Abdullayev 1978, 55].

Qarnoq shevasida qipchoq shevalariga xos fonetik hodisa: *tav, bav, sav, tuvdi, tuvri* kabi bir va ikki bo'g'inli so'zlarda *γ* tovushining *v* tovush bilan moslik hosil qilishi qayd etiladi. Qolgan shevalarda ushbu so'zlarda *γ* undoshining pozitsiyasi mustahkam.

JQO'Shlaridan Iqon, Qarnoq, Qorabuloq shevalarida I va II shaxsda tuslovchi affiks tarkibidagi *n* undoshi talaffuz jarayonida tushib qolishi qayd etiladi: *boraman < barama, kelaman < kälämä, aytaman < e:dämä, qilasan < qilasa, ko'rasan < köräsä*. Mankent va Qoramurt shevalarida mazkur holatda *n* tovushining o'rni mustahkam.

JQO'Shlarida so'zning grammatik qurilishida ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular bir tomondan Xorazm o'g'uz shevalaridan farqlansa, ikkinchi tomondan o'zaro, ya'ni Turkiston guruhi o'g'uz shevalari Chimkent guruhi o'g'uz shevalarining formal ko'rsatkichlaridan ajralib turadi.

JQO'Shlarida *-lär//lar* ko'plik shakli deyarli barcha shevalarda bir xil singarmonizm qonuniga mos ravishda amal qiladi, faqat *m, n, η* sonor tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda *-nar//när* fonetik variantiga ega bo'ladi: *ajto:mnar, xa:lanar, tayamnar, a:γamnar, ba:banar, künnär, kä:linnär, me:ma:nnar, bariñnar*.

Qarnoq shevasida *-dar//där, -tar//tär* (qizdar, attar, ittär) varianti ham epizodik tarzda uchray turadi. Mankent va Qoramurt shevalarida tayanch dialektlar kabi *-lä//la* (*balla, qi:zla, tujälä*) variantlari ham qo'llanadi.

Biz va *siz* kishilik olmoshlari *-är* affiksini qabul qilib: *bizär, sizär* tarzida ifodalanadi. Iqon va Qorabuloq shevalarida *u, bu, šu* (kishilik, ko'rsatish) olmoshlari ko'plikda *-lar* shaklini ketma-ket ikki marta qabul qiladi va qo'shko'plikni yuzaga keltiradi: *u+lar+lar < ulallar, bu+lar+lar < bulallar, shu+lar+lar < šulallar* tarzida qo'llanadi.

Qaratqich kelishigining *-iñ // iñ* affiksi undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Ba:jñ a:šini ba:jyuz qo:ryapti. L:šñ kö:zini bilädi*, unli bilan tugagan so'zlarga *-niñ // niñ* varianti qo'shiladi: *Tüjäniñ qujruyi je:rgä täggä:ndä. A:naniñ ba:γri a:lamdin ke:η* (Iqon). Mankent va Qoramurt shevalarida tayanch dialektlar kabi qaratqich

kelishigi o'rnida tushum kelishigi affiksi qo'llanadi va assimilyativ shakllarini ham yuzaga keltiradi: *ašti tu:zi kām-yu; Jalyuz atni: čanyı çıqmas* (Qoramurt). *Atti ägäri, qoşqarnı* ša:xı, *Äzimvajdı qi:zi; Jamanni bir qiliyi a:rtuq* (Mankent).

Jo'nalish kelishigining -gä // ya // kä // qa // ä // a affikslari bilan ifodalanadi: *Zö:rägä e:diškä bā:tim čidayajo:q. I:t i:tkä saladı, i:t qujruviya. Ö:lmäs ba:liqqa su: učraptı*. Jo'nalish kelishigining -ä // a shakli Xorazm o'g'uz shevalaridan farqli ravishda JQO'Shlarida faqat I va II shaxs egalik qo'shimchalarini olgan otlargagina qo'shiladi: *I:timä ha:r, pişigimä na:mis. Ö:ziñä äp kö:rmägä:nni, birävğäjäm täñ kö:rmä* (Iqon). Xorazm o'g'uz shevalarida esa asosga to'g'ridan-to'g'ri qo'shila oladi: *öjä gälmädi; ata mindi; daya čiqvädik* (Hazorasp). III shaxsda Xorazm o'g'uz shevalarida -nä // na affikslari *atasina bardi, öjinä bardi* (Hazorasp.) tarzida qo'llansa, JQO'Shlarida ushbu o'rinda -gä // ya affikslari qo'llanadi: *atasiya berdi, öjigä bardi* kabi.

JQO'Shlarining barchasida chiqish kelishigining qadimgi tarixiy shakli -din//dın, -tin//tın affikslari qo'llanadi: *Qadalyan ža:jidin qa:n a:ladi. Äjäl ärkäktin pä:sra:q turadi* (Iqon). *Jaxšidin a:t, jamandin da:t* (Qoramurt). Mankent shevasida shu bilan birga -dän // dan, -tän // tan variantlari ham uchrab turadi.

Egalikni hosil qiluvchi -niki affiksini qo'llashda Qorabuloq va Iqon shevalarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, -inķi shaklida qo'llanadi:

atamiņki (otamniki), itiņki (itniki), seniņki//se:ņki (seniki), dädämiņki (dadamniki), ayamiņki (akamniki), tayamiņki (tog'amniki) kabi. Qoramurt va Mankent shevalarida esa -niki // iki affikslari qo'llanadi.

Tartib sonni hosil qiluvchi -nči // nči affikslari, asosan, Mankent va Qoramurt shevalarida qo'llansa, qolgan barcha shevalarda -nži, -inži, -nži, -inži affikslari orqali hosil qilinadi. Masalan, *birinži, tö:tinži, a:ltinži, a:ltmišinži: Mä:htäpni to:xsa:ninži jili pitirgämmis*.

Iqon shevasida kishilik olmoshlari kelishik affikslari bilan turlanganda o'ziga xoslik qayd etiladi. *Men, sen* olmoshlari bosh (*män, sän*) va jo'nalish kelishiklarida (*maņa // saņa*) tarzida keng unli (*ä*) qo'llanib, qaratqich (*me:η, se:η*), tushum (*me:ni, se:ni*), o'rinpayt (*me:ndä, se:ndä*) va chiqish kelishiklarida (*me:ndin, se:ndin*) tarzida keng unli torayib qo'llanadi.

Qarnoq va Iqon shevalarida dona son adabiy tildagi kabi -ta affiksi yordamida hosil qilinmaydi, balki to'g'ridan-to'g'ri sanoq

sonlarni keltirish orqali ifodalanadi: *tö:t ba:la, üš a:dam, e:llü qoj, o:mbe:š si:r, jüz a:t* kabi, lekin Mankent va Qoramurt, Qorabuloq shevalarida *bittä, ikkitä, onta* shaklida qo'llanadi.

JQO'Shlarida adabiy til va boshqa o'zbek shevalaridan farqli ravishda *-tacha* affiksi o'rnida sanoq sonlarga *-lägän // layan* affiksini qo'shish orqali chama son hosil qilinadi: *mingtacha – minlägän, o'ntacha – onlayan* tarzida.

Hozirgi zamon fe'l shakli deyarli hamma shimoliy o'zbek guruhining o'g'uz shevalarida *-je:t, -jat // jät* affikslari orqali ifodalanadi. *Si:r sa:yöp, sü:t-qatıq qıp, kün kö:rje:tmis* (Iqon). *Qaj tamandın kejätti süjgän jarıñ tavuşı* (Qarnoq). *Jav kälip elıñ ma:lını häjdäp ke:djatqanäkä* (Qizilqishloq). Shu bilan birga Qorabuloq, Mankent shevalarida *-japti // jäpti* variantlari, Qarnoq shevasida *-jatır* affiksi ham; uchrab turadi.

Uzoq o'tgan zamon fe'lining *-b // ib* affiksli ravishdosh + *edi* to'liqsiz fe'li (*kö:rib edim, barıb edim*) orqali hosil qilinadigan shakli Iqon, Qorabuloq, Qizilqishloq shevalarida: *kö:rdi:dim, kö:rdi:din, kördi:di; kö:rdi:dik, kö:rdi:dinär, kördi:di(lär); ba:rdi:dım, ba:rdi:din, ba:rdi:di; ba:rdi:dıq, ba:rdi:dınnar, ba:rdi:di(lar)* tarzida qo'llanadi. Uzoq o'tgan zamon fe'lining ushbu shakli boshqa shevalarda uchramaydi.

Qo'shma fe'l tarkibidagi ayrim ko'makchi fe'llarning qo'llanishida ham ba'zi xarakterli xususiyatlar uchraydi. Aslida, ko'makchi fe'llarning adabiy til va shevada qo'llanishi, anglatgan ma'nolari, yetakchi fe'llarga birikish shakli va usullari bir xil, ammo shu bilan birga o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Masalan, sol ~ **sal** ko'makchi fe'li adabiy tildagidek ravishdoshning *-b // ib* va *-ä // a // j* affiksli shaklida birikib, harakatning ketma-ket bajarilishini ifodalaydi: *Me:ni kö:räsa:p qa:štı. Ba:rasa:pja:qınna:rya xa:bar je:tkiz.*

Shuningdek, JQO'Shlarining xarakterli xususiyatlaridan biri, **qol** ~ *qa(l)* ko'makchi fe'li o'rnida **sol** ~ *sa(l)* ko'makchi fe'lining qo'llanishidir. Masalan: qo'ya qol – *qo:jä sa(l)*, ayta qol – *e:dä sa(l)*, bera qol – *bärä sa(l)*, qila qol – *qıla sa(l)*. Ushbu xususiyatni sheva vakillarining qozoq tilli aholi bilan yonma-yon yashayotganligi bilan izohlash mumkin.

JQO'Shlarida ham **ol** – **a:(l)** ko'makchi fe'li adabiy tildagi ma'nolaridan farq qilmagan holda ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi: *Kä:tta:jan kä:güčäj, i:šimni qıbalaj* (qilib olay). *Ba:zar ba:rsan, qurya:q me:vänin je:ñisini kö:riba:(ko'rib ol). Jo:ldin tilla:ta:(v)ubayandaq* (topib olgandek) *quva:nadi* kabi. Shuning bilan birga, harakatni bajarishga qodirlik ma'nosini ifodalaganda **ol** ~ **a:(l)**

ko'makchi fe'li o'rnida **bil** ~ **bil** ko'makchi fe'li qo'llanadi: ishlay oladi ~ *i:šlāj bilādi*, ko'ra oladi ~ *kö:rābilādi*, so'zlay oladi ~ *sö:llājbilādi* kabi. Shunisi xarakterliki, harakatni bajarishga qodirlik ma'nosining **bil** ko'makchi fe'li orqali ifodalanishi adabiy til uchun me'yor emas. Bu ma'noda o'g'uz guruhiga mansub turkiy tillar uchun xosligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [Баскаков 1952, 381], jumladan, o'zbek tilining xorazm shevalarida ham uchraydi.

Xorazm shevalarida ish-harakatni bajarishga qodirlik imkoniyatiga egalik **bil** ko'makchi orqali, qodir emaslik ma'nosi **bil** ko'makchi fe'liga *-ma*, *-mä* affiksini qo'shish orqali anglashiladi: *i:šlijvildim* ~ *i:šlijvilmādim*, *gälävildim* ~ *gälävilmādim* tarzida [Абдуллаев 1961, 171]. Ushbu o'rinda JQO'Shlarining xarakterli xususiyati shundaki, fe'ling bo'lishli ma'nosi **bil** ko'makchi fe'li orqali, bo'lishsiz ma'nosi esa **a:(l)** ko'makchi fe'li orqali ifodalanadi: *i:šlājbilāmā* (ishlay bilaman) ~ *i:šlājā:mmājmā* (ishlay olmayman), *kā:lābildim* (kela bildim) ~ *kā:lāmmā:dim* (kela olmadim) kabi. Ko'rinadiki, bitta lahja tarkibidagi Xorazm shevalari va JQO'Shlari o'zaro kichik xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

JQO'Shlarida so'roq yuklamasi *-mi* Iqon, Qorabuloq va Qizilqishloq shevalarida *-na*, *-nä* shaklida, Qarnoq, Qoramurt va Mankent shevalarida esa adabiy tilga mos ravishda *-mi* shakli qo'llanadi: *Küjöv ba:la i:škā barje:ttina? Ä:rtäjäm kälājnā?* (Iqon).

Bizga ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tilning leksik sathida o'zgarishlar, ya'ni yangi-yangi so'zlarning kirib kelishi, ayrim so'zlarning arxaiklashishi mavjud. Shuningdek, leksika eng ta'sirchan sath bo'lib, unda so'zlarning bir shevadan ikkinchi shevaga o'zlashib ketishi oson. Shu bois, JQO'Shlarida qarluq, qipchoq va o'g'uz guruh shevalarining lug'at tarkibida umumiy bo'lgan so'zlar ko'p. Shunday bo'lsa-da, so'zning fonetik tizimi, grammatik qurilishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lgani kabi, leksik tarkibidagi ba'zi o'zgachaliklari haqida ham fikr yuritish mumkin.

Masalan, Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarida turli qarindoshlik va yaqinlikni ifodalovchi ayrim leksemalarga to'xtalsak. JQO'Shlarining Iqon, Qarnoq, Qorabuloq, Ibota kabi shevalarida otasiga, asosan, *dä:dä* deb murojaat qilinsa, Qoramurt, Mankent shevalarida *ädä* shakli faol. Shuningdek, kekxa avlod nutqida Xorazm o'g'uz shevalariga mos *äkä* shakli ham uchrab turadi. Iqon, Qarnoq shevalarida otaning do'stiga *da:da* shaklida murojaat qilinadi: *Ba:baža:n da:dām*, *Mura:t da:dām* kabi.

Xorazm o'g'uz shevalarida tug'gan onasiga *apa* deb murojaat

qilinsa, JQO'Shlarining Iqon, Qarnoq shevalarida *a:ja* shaklida, Mankent, Qoramurt, Qorabuloq shevalarida esa *a:ji* shaklida fonetik farqlar bilan qo'llanadi. JQO'Shlarida *apa* so'zi ota hamda onaning onasiga nisbatan, ya'ni *buvi* ma'nosida qo'llanadi: *Apam b'iläm ba:bam kä:ttä tayamij qolida turadi*. Shuningdek, *apa* so'zi Iqon shevasida ota do'stining ayoliga nisbatan ham qo'llanadi: *Bügün Sa:birxa:n da:däm b'iläm Ši:rin apam käb ke:tti*. Qarnoq shevasida esa ushbu o'rinda *äčä* so'zi qo'llanadi.

Adabiy til va aksariyat shevalarda bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar ichida o'zidan kichiklarga (uka va singillarga) nisbatan katta qiz *äpä* deb yuritilsa, JQO'Shlarida ushbu o'rinda Iqon va Ibotat shevalarida *ajto:// ajto:ti*, Qorabuloq shevasida *bi:bi*, Qoramurt, Mankent shevasida esa *apaji* shaklida qo'llanadi.

Bir ota-onadan tug'ilgan katta o'g'ilga o'zidan kichiklar *äkä* deb murojaat qilsa, o'g'uz shevalarida *aya* deb qo'llanishi ma'lum. Shu bilan birga *aya* so'zining qo'llanishida ham ba'zi o'ziga xosliklar mavjud. Masalan, Iqon shavsida *ayasiga*, *amakisiga* murojaat qilinganda ismiga *dä:dä* so'zi qo'shib ifodalanadi: *Baha:r dä:dä, To:jža:n dä:dä* kabi. Qorabuloq, Mankent, Qizilqishloq, Qarnoq shevalarida esa *äkä* shaklida ham qo'llanadi.

Xorazm o'g'uz shevalarida *e:š* so'zi 1. *qarindosh-urug'*, *xesh-aqrabo*; 2. *yo'ldosh* ma'nosida qo'llansa [Abdullayev 1961, 41], JQO'Shlarida esa faqat *dugona* ma'nosida qo'llanadi. Narvon – Xorazm o'g'uz shevalarida *zängi* [Abdullayev 1978, 46], JQO'Shlarida *üzängi* shaklida fonetik farq bilan qo'llanadi. Yashirmoq – JQO'Shlarida *kizlämäk*, Xorazm o'g'uz shevalarida *gizlämäk*; navbat – JQO'Shlarida *käzäk*, Xorazm o'g'uz shevalarida *gäzik* [Madrachimov 1973, 59]; ekin maydoni – *atiz* har ikki guruhda bir xil qo'llanadi; ot-ulov, transport – *kölik* har ikki guruhda bir xil; poylamoq – *añdimaq* Xorazm o'g'uz shevalarida, JQO'Shlarida *andimaq*; buyrak – Xorazm o'g'uz shevalarida *böräk* [Madrachimov 1973, 55], JQO'Shlarida *büjräk // bögräk* shaklida;

Ko'rinadiki, Xorazm o'g'uz shevalari va Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalari genetik jihatdan turkiy tillarning muayyan qabila tillari asosida rivojlanganligi, tabiiy ravishda mushtarak lug'aviy xususiyatlarning mavjud bo'lishini ta'minlagan.

Shu bilan birga JQO'Shlarida katta sandiq – *abdıra*, Xorazm o'g'uz shevalarida *arža*; kaft – Xorazm o'g'uz shevalarida *a:ja* [Madrachimov 1973, 35], JQO'Shlarida *alaqa:n* shaklida qo'llanadi.

Xulosa

Shuningdek, JQO'Shlari leksikasida hududan yondosh yoki bir-biridan nisbatan uzoq masofadagi shevalar leksikasida ham umumiylikni kuzatish mumkin.

Žaydaj – hol-ahvol, shart-sharoit; *zaj* – qonun; *tömän* – past, pastlik; *ädämi* – chiroyli, go'zal; *bijlämäk* – egalik qilmoq; *žaj* – sekin, ohista; *tamaq* – ovqat, taom; *čäkä // čägä* – mix; *dasma:l* – sochiq; *a:jim* – sochni ikkiga ajratib farq ochish; *judruq* – musht; *käpirčäk* (Iqon) // *kämirčäk* (Qarnoq) // *kömirčäk* (Qoramurt) – burun suyagi, tog'ay; *qavuš* // (Mankent, Qorabuloq, Iqon), *qoyiš* (Qarnoq) // *qovaš* (Qoramurt) – tarnov; *qizildari* (Qarnoq) // *qizda:ri* (Iqon); *mäläk* – suv uchun ishlatiladigan kichik ko'za (Iqon, Qarnoq, Qoramurt); *pisäk* – hovli devori (Iqon, Qarnoq); *söki* – loydan qurilgan supa; *täkäš* – tog'oradan kichik, tovoqdan katta sirli idish; *totra* – qizdirilgan sariyog' tagida qoladigan cho'kindi; *u:l // ul* – uying poydevori (fundament); *hamramaq* – uyquda alahsiramoq; *xi:jra* – *tentak, jinni*; *čayir* – shag'al, mayda tosh; *šibaya* – *ulush, nasiba*.

Xulosa shuki, ushbu arealdagi o'g'uz shevalarining Xorazm o'g'uz shevalari bilan mushtarak xususiyatlarga ega bo'lishi ularning tarixiy ildizi umumiylikidan darak beradi.

Shu bilan birga JQO'Shlarining fonetik, grammatik hamda leksik jihatdan o'zaro umumiy va farqli xususiyatlar ega bo'lishi, ular orasidagi hududiy va genetik yaqinlik hamda shevalararo aloqalarning, shuningdek, ma'lum darajada qozoq tilining ta'siri deb baholamoq lozim.

Shartli qisqartma:

JQO'Sh – Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalari. Bu guruhga Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq, Qarnoq, Iqon, Iboti kabi hudud shevalari kiradi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1965. “Қарноқ шеваси фонетикасидан”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 16 – 22.
- Абдуллаев, Ф. 1978. *Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси*. Тошкент: Фан.
- Абдуллаев, Ф. 1961. *Ўзбек тилининг хоразм шевалари*. Тошкент: Фан.
- Баскаков, Н. А. 1952. *Каракалпакский язык*. Т. II. Фонетика и морфология. Москва.
- Бегалиев, М. 2002. *Ўзбек тили Қорабулоқ шеваси*. Филол. фан. номз... дисс. автореф. Тошкент.
- Зуфаров, С. 1966. *Ўзбек тилининг Сайрам шеваси*. Филол. фан. номз... дисс. Тошкент.
- Йўлдошев, А. 1968. “Манкент шевасида феълларнинг замон

формалари”. *Ўзбек филологияси масалалари тўплами*. 16 – 25. Тошкент.

- Мадраҳимов, О. 1973. *Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеваси*. Хоразм: Ургенч.
- Мухамеджанов, К. М. 1988. *Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана*. Дисс... докт. филол. наук. Ташкент.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1981. *Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари (қарлуқ ва қипчоқ тип материаллари асосида)*. Тошкент: Фан.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1983. *Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси*. Тошкент: Фан.
- Назаров, К. 1969. “Шимолий ўзбек шевалари таснифига доир”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5. Тошкент.
- Нуруллаева, Ш. 2001. *Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросими номлари*. Филол. фан. номз... дисс. Тошкент.
- Поливанов, Е. Д. 1929. “Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд)”. *Известия. АН СССР*, Сер. VII. Ленинград.
- Khidralieva, Z. “The use of primary long vowels in Ikan dialect”. *International Scientific Journal Theoretical. Applied Science* 5(85): 586 – 589.
- Xidraliyeva, Z. 2023. *O'zbek tilining Iqon shevasi*. Filol. fan. b. fals. dok.... diss. Toshkent.
- Холмедова, З. 2005. *Ўзбек тилининг Қарноқ шеваси лексикаси*. Филол. фан. номз... дисс. автореф. Тошкент.
- Юдахин, К. К. 1957. “Некоторые особенности Карабулакского говора”. *Ўзбек диалектологиясидан материаллар* 31 – 57. Тошкент: Фан.
- Юдахин, К. К. 1961. “Тексты. Карабулакский говор”. *Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. 14 – 23. Т. II. Тошкент: Фан.
- Ўзбек халқ шевалари луғати*. 1971. Тошкент: Фан.

The relationship between the Oghuz dialects of Southern Kazakhstan

Zakhira Khidraliyeva¹

Abstract

As it is known, learning, describing and researching the common Turkish and dialectic features of dialects, which are the basis of the national language, the source of the enrichment and development of the literary language, is important not only for the knowledge of the Uzbek dialect, but also for the comparative dialectology of the Turkic languages.

It has been repeatedly emphasized in the literature that Uzbek dialects have a complex dialectal structure among Turkic languages. Especially the Uzbek dialects outside the Republic of Uzbekistan are more complex, unique and distinguished by their ties to various Turkic language groups such as Karluk, Kipchak and Oghuz.

This article aims to study the relationship between the Oghuz dialects of South Kazakhstan, which are part of the Uzbek language.

As it is known, almost the majority of Uzbeks in the Republic of Kazakhstan live in the south of Kazakhstan - in the Turkestan region and according to their language characteristics, the Uzbek language is divided into Karluk, Kipchak and Oghuz dialects.

To determine the relationship between the dialects of South Kazakhstan, such as Qarnoq, Iqon, Karabulaq, Mankent, Karamurt and Kyzylkishloq, which are part of the Oghuz dialects, that is, to determine their unique phonetic, morphological, lexical and semantic features, the common aspects and specific characteristics of the Oghuz dialects of South Kazakhstan with the Oghuz dialects of the Turkic language system are discussed.

Key words: *literary language, Turkic language, dialect, Karluk, Kipchak, Oghuz, northern uzbek group dialects.*

References

- Abdullaev, F. 1965. "Qarnoq shevasi fonetikasidan". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 16 – 22.
- Abdullaev, F. 1978. *O'zbek tilining o'g'uz lahjasi*. Toshkent: Fan.
- Abdullaev, F. 1961. *O'zbek tilining xorazm shevalari*. Toshkent: Fan.

¹ Zokhira R. Khidraliyeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

E-pochta: xidraliyevazoxira@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-7976-1093

For citation: Khidraliyeva, Z. R. 2025. "The relationship between the Oghuz dialects of Southern Kazakhstan". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 23 – 34.

- Baskakov, N. A. 1952. *Karakalpakskiy yazik*. T. II. Fonetika i morfologiya. Moskva.
- Begaliev, M. 2002. *O'zbek tili Qorabuloq shevasi*. Filol. fan. nomz...diss. avtoref. Toshkent.
- Zufarov, S. 1966. *O'zbek tilining Sayram shevasi*. Filol. fan. nomz...diss. Toshkent.
- Yo'ldoshev, A. 1968. "Mankent shevasida fe'llarning zamon formalari". *O'zbek filologiyasi masalalari to'plami*. 16 – 25. Toshkent.
- Madrahimov, O. 1973. *O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi*. Xorazm: Urgench.
- Muxamedjanov, K. M. 1988. *Arealnoe issledovanie uzbekskix govorov Yujnogo Kazaxstana*. Diss... dokt. filol. nauk. Tashkent.
- Muhammadjonov, Q. 1981. *Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari (qarluq va qipchoq tip materiallari asosida)*. Toshkent: Fan.
- Muhammadjonov, Q. 1983. *Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari morfologiyasi*. Toshkent: Fan.
- Nazarov, K. 1969. "Shimoliy o'zbek shevalari tasnifiga doir". *O'zbek tili va adabiyoti* 5. Toshkent.
- Nurullaeva, Sh. 2001. *Turkiston qarluq tip shevalarida to'y marosimi nomlari*. Filol. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Polivanov, Ye. D. 1929. "Foneticheskaya sistema govora kishlaka Ikan (Turkestanskiy uezd)". *Izvestiya. AN SSSR, Ser. VII*. Leningrad.
- Khidralieva, Z. "The use of primary long vowels in Ikan dialect". *International Scientific Journal Theoretical. Applied Science* 5(85): 586 – 589.
- Xidraliyeva, Z. 2023. *O'zbek tilining Iqon shevasi*. Filol. fan. b. fals. dok.... diss. Toshkent.
- Xolmedova, Z. 2005. *O'zbek tilining Qarnoq shevasi leksikasi*. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. Toshkent.
- Yudaxin, K. K. 1957. "Nekotorie osobennosti Karabulakskogo govora". *O'zbek dialektologiyasidan materiallar* 31 – 57. Toshkent: Fan.
- Yudaxin, K.K. 1961 "Teksti. Karabulakskiygovor". *O'zbekdialektologiyasidan materiallar*. 14 – 23. T. II. Toshkent: Fan.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.